

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING NOAN'ANAVIY USLUBLARI

Isomova Farog'at Tojiddin qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrari o'qituvchisi

E-mail: isomovafarogattojiddinqizi@oxu.uz

Anotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tabiat bilan tanishish hayotiy tajriba va bilim olishning muhim qismini tashkil etadi. An'anaviy uslublari, masalan, ekskursiyalar va kuzatishlar keng qo'llaniladi, biroq zamonaviy pedagogika noan'anaviy yondashuvlarni ham ilgari surmoqda. Ushbu maqolada bolalarni tabiat bilan tanishtirishning noan'anaviy uslublari, ularning afzalliklari va pedagogik samaradorligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar : tabiat, ta'lim, tarbiya, bilim, ijtimoiy, soha, kompetensiya, rivojlanish, aloqa, omil, shaxs

НЕТРАДИЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ЗНАКОМСТВА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С ПРИРОДОЙ

Аннотация: Для детей дошкольного возраста знакомство с природой является важной частью приобретения жизненного опыта и знаний. Широко используются традиционные методы, такие как экскурсии и наблюдения, однако современная педагогика пропагандирует и нетрадиционные подходы. В статье рассматриваются нетрадиционные методы знакомства детей с природой, их преимущества и педагогическая эффективность.

Ключевые слова: природа, образование, воспитание, знание, социальный, сфера, компетентность, развитие, коммуникация, фактор, человек

UNTRADITIONAL METHODS OF INTRODUCING PRESCHOOL CHILDREN TO NATURE

Abstract: For preschool children, familiarization with nature is an important part of life experience and knowledge acquisition. Traditional methods, such as excursions and observations, are widely used, but modern pedagogy also promotes non-traditional approaches. This article discusses non-traditional methods of introducing children to nature, their advantages and pedagogical effectiveness.

Keywords: nature, education, upbringing, knowledge, social, field, competence, development, communication, factor, persony

Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonimizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning bosh maqsadi aynan mana shunga qaratilgan ya'ni o'sib kelayotgan yosh avlod mustaqil O'zbekistonimizning kelajagini, taraqqiyotini kafolatlaydi. Mana shu ustivor yo'nalishlardan kelib chiqqan holda bolalar bog'chalarida farzandlarimizga berilgan har qanday bilim ularda Vatanga sadoqat o'z o'lkasini sevish, Vatan bilan g'ururlanish ruhini tarbiyalashi lozim. Shunday ekan tabiat bilan tanishtirish metodikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim: -bolalarni o'z o'lkasini sevishga o'rgatish. - o'zining, tengdoshlari va kattalarning mehnatini qadrlashga o'rgatish. - tabiat orqali psixik jarayonlarni rivojlantirish (sezgilar, idrok, xotira, xayol, tasavvur, nutq, diqqat). - Bolalar hissiyatini, irodasini rivojlantirish. - tabiat in'om

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

etgan ne'matlarni avaylab asrashga o'rgatish. Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda, bolalarni har tomonlama tarbiyalashda tabiat orqali aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, nafosat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, ekologik tarbiya, iqtisodiy tarbiya berish lozim. Yosh avlodga aqliy tarbiya berish umumiy tarbiyaning tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi. Aqliy tarbiya berish ko'zlangan maqsad maktabgacha yoshdagi bolalarni tevarak - atrofdagi hayotning eng oddiy hodisalari haqida turli tasavvurlar hosil qila olishga o'rgatib borishdan iborat. Tabiat vositasida bolalarga aqliy tarbiya berish biz yashaydigan muhitdagi o'simlik va hayvonot olami bilan tanishtirish, jonli-jonsiz tabiat haqida tushuncha berish haqidagi, uning elementlari, tabiatda bo'ladigan hodisalar, yomg'ir, yulduzlar, oy haqida, yer haqida tushunchalarini mashg'ulot vaqtida so'rab bilish mumkin. Bola tevarak- atrofdagi narsalar, ularning shakli, rangi, katta-kichikligini ko'rib ular haqida fikr yuritadi. Aqliy tarbiyaning eng muhim vazifalaridan yana biri bolalarni tarbiyalashdir. Bolalarga aqliy tarbiya berishda tabiat vositalardan foydalanish ma'lum bir tizim asosida amalga oshirilishi kerak. Buning uchun eng avvalo tabiat bilan tanishtirishning eng oddiy tushunchalaridan boshlab tabiat haqidagi ilmiy dunyoqarashlar hosil qilinadi. Natijada bolalarda ko'rgazmali obrazli, ko'rgazma harakatli tafakkur rivojlanadi. Buning ahamiyati shundaki tanishtirilgan tabiatning har bir vositasi bola ongida fikrida tushunchasida mustahkam iz qoldiradi. Axloqiy tarbiya deyilganda yosh avlodni Vatanga, kishilarga muhabbat, ularga va ular mehnatiga hurmat tuyg'ulari, baynalminallik kurtaklari, kishi – kishiga do'st, tinchlik, xarakterning irodaviy xislatlari va shaxsning ijobiy axloqiy sifatlar, poklik, to'g'rilik, olijanob inson uchun nimaiki zarur bo'lsa, hammasini mujassamlashtirilgan holda tarbiyalash tushuniladi. Yosh avlodda bu xislatlarni kamol toptirish uchun tabiat omilidan keng foydalanish kerak. Buni amalga oshirish bir kunlik, bir oylik ish emas, balki bu uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo'lib, kerak bo'lsa yillab tarbiya talab qiladigan mehnatning mahsuli hisoblanadi. Tabiat vositasida axloqiy tarbiya berish uchun maktabgacha ta'lim yer maydonchalariga ekilgan ekinni parvarish qilish, gullarning har biri gulini niholini asrash, uni parvarish qilish, gullarni tagini yumshatish, sug'orish kabi ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirish mumkin. Bolalarni maktabgacha ta'lim yer maydonchasida, tabiat burchagida, o'simlik yoki hayvonni tanishtirish jarayonini tashkil etish kerak. Bunda tarbiya tanishtirishni qiziqarli jonli sharoitga bog'lab bolalarning e'tiborini o'ziga rom etib tashkil etish kerak. Tabiat vositasida bolalarga axloqiy tarbiya berishning yo'llari juda ko'p va xilma-xil.

1. **Interaktiv o'yinlar va loyihaviy metodlar**

Bolalar uchun tabiatni o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qilish maqsadida interaktiv o'yinlar va loyihalar qo'llaniladi. Masalan, "Tabiat detektivi" o'yini orqali bolalar o'simliklar va hayvonlarning yashash muhitini o'rganishlari mumkin. Shuningdek, "O'simlik ekimiz" loyihasi bolalarga tabiatni parvarish qilish va unga g'amxo'rlik qilish muhimligini o'rgatadi. Bundan tashqari, "Yashil sayohat" o'yini bolalarga tabiat muhofazasi haqida tushuncha berishda foydali bo'ladi.

2. **Ekologik ertak va hikoyalar**

Bolalar tabiat haqida eshitganlarini yaxshiroq eslab qolishlari uchun ekologik ertaklar va hikoyalardan foydalanish samarali usullardan biridir. Masalan, "Mevalar jangi" ertagi orqali bolalar turli mevalarning foydasi va ularni qanday yetishtirish kerakligini o'rganishadi. Shuningdek, "Yashil shahar" hikoyasi bolalarga ekologik muhitni saqlash va unga hissa qo'shish zarurligini o'rgatadi.

3. **Eksperimentlar va tajribalar**

Bolalar tabiiy jarayonlarni tajribalar orqali o'rganishlari mumkin. Masalan, "Suvning aylanishi" tajribasi bolalarga bug'lanish va yog'ingarchilik jarayonlarini tushuntirishga yordam beradi. "O'simlikning o'sishi" tajribasi esa urug'ning unib chiqishini kuzatish orqali sabr-toqat va

mas'uliyatni rivojlantiradi. Bundan tashqari, "Havo tarkibini o'rganish" tajribasi orqali bolalar tabiatdagi gazlarning ahamiyatini tushunib yetishlari mumkin.

4. **San'at va tabiat uyg'unligi**

Bolalar tabiatni san'at orqali o'rganishlari mumkin. Masalan, barg va gul yaproqlaridan tasviriy san'at asarlarini yaratish, tabiiy materiallardan haykalchalar yasash yoki tabiat manzaralarini chizish ularga estetik zavq bag'ishlaydi va kuzatuvchanlikni oshiradi. "Tabiat mo'jizalari" deb nomlangan ijodiy darslar orqali bolalar o'z fantaziyasini ishga solib, tabiiy materiallardan san'at asarlarini yaratadilar.

5. **Virtual va raqamli texnologiyalar**

Zamonaviy texnologiyalar bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini kengaytirishga yordam beradi. Masalan, VR (virtual reallik) yordamida bolalar uzoq o'rmonlar, okean tubi yoki kosmik fazoni o'rganishlari mumkin. Shuningdek, interaktiv mobil ilovalar orqali qushlarning ovozlari eshitish yoki turli daraxtlarning xususiyatlarini bilib olish mumkin. "Ekologik soatlar" dasturi orqali bolalar turli ekotizimlar bilan tanishishlari va virtual sayohatlar qilishlari mumkin.

6. **Tabiat bilan bevosita aloqa**

Noan'anaviy yondashuvlar ichida bolalarni tabiat bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotga kiritish juda samarali usullardan biridir. Masalan, bog'dorchilik va dehqonchilik mashg'ulotlari bolalarga o'simliklarni parvarish qilish va ularni yetishtirish jarayonini o'rgatadi. "Kichik fermer" loyihasi bolalarga tabiat resurslaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini beradi.

Xulosa Noan'anaviy uslublar bolalarning tabiatga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Interaktiv o'yinlar, ekologik ertaklar, eksperimentlar, san'at va raqamli texnologiyalar bolalarni tabiat bilan yaqinlashtirishda muhim vositalardir. Shuningdek, bog'dorchilik, sayohatlar va virtual o'rganish kabi usullar ham bolalarning ekologik ongini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu uslublarni keng qo'llash orqali bolalarning ekologik madaniyatini shakllantirish va ularga tabiatga nisbatan mas'uliyat hissini singdirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.A.Axmedov Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. Buxoro.2023-y.
2. Isomova, FATQ (2022). THE IMPORTANCE OF SPEECH DEVELOPMENT ACTIVITIES IN PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL
3. Tojiddinovna, I. F. A. (2024). Tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta'siri. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(2), 429-435.
4. Isomova, F. A. T. Q. (2022). MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 947-949.
5. Tajiddinovna, I. F. (2024). Types of education and their impact on personality development. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(2), 469-475.
6. Исомова, Ф. Т. (2024). Виды образования и их влияние на развитие личности. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(2), 461-468.
7. Tojiddinovna, I. F. A. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA "ILK QADAM" DASTURI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 603-608.
8. Tajiddinovna, I. F. A. (2024). FIRST STEP PROGRAM IN PRESCHOOL EDUCATION. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 609-614
9. Tajiddinovna, I. F. A. (2024). THE ISSUE OF EDUCATION IN PRIMARY EDUCATION. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 615-620

10. Ikromova, S. (2023). CONCEPT OF IDEOLOGY AND FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUTH STUDENTS. *Modern Science and Research*, 2(6), 1223-1226.
11. Tojiddinovna, I. F. A. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA BOLALARNING IJTIMOYIY MOSLASHUVI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 590-595.
12. Hojiyeva, N. (2023). METHODS OF TEACHING MOTHER TONGUE IN PRIMARY CLASSES SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS. *Modern Science and Research*, 2(9), 424-428.